

ITALYAN TILIDA GRAMMATIK JINS KATEGORIYASI: MORFOSINTAKTIK VA
SOTSIOLINGVISTIK TAHLIL

G'ofurjonova Muazzamxon Umid qizi
O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti
1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada italyan tilidagi grammatik jins (rod) kategoriyasi lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda grammatik jinsning tarixiy shakllanishi, morfologik va sintaktik xususiyatlari, artikl va sifatlar bilan moslashuvi (accordanza), shuningdek, zamonaviy italyan jamiyatida til va gender masalasiga oid sotsiolingvistik bahslar ko'rib chiqiladi. Maqola Accademia della Crusca tavsiyalari hamda Alma Sabatini va boshqa tilshunos olimlarning ilmiy qarashlariga tayangan. Tadqiqot natijalari grammatik jinsning nafaqat strukturaviy, balki ijtimoiy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: grammatik jins, italyan tili, morfosintaksis, gender va til, inklyuziv til, Accademia della Crusca

Abstract: This article analyzes the category of grammatical gender (rod) in the Italian language from a linguistic perspective. The study examines the historical formation of grammatical gender, its morphological and syntactic features, its agreement with articles and adjectives (accordanza), as well as sociolinguistic debates on the issue of language and gender in modern Italian society. The article is based on the recommendations of the Accademia della Crusca and the scientific views of Alma Sabatini and other linguists. The results of the study show that grammatical gender has not only structural but also social significance.

Keywords: grammatical gender, Italian language, morphosyntax, gender and language, inclusive language, Accademia della Crusca

Аннотация: В данной статье анализируется категория грамматического рода (стержень) в итальянском языке с лингвистической точки зрения. Исследование рассматривает историческое формирование грамматического рода, его морфологические и синтаксические особенности, согласование с артиклями и прилагательными (аккорданца), а также социолингвистические дискуссии по вопросу языка и рода в современном итальянском обществе. Статья основана на рекомендациях Академии делла Круска и научных взглядах Альмы Сабатини и других лингвистов. Результаты исследования показывают, что грамматический род имеет не только структурное, но и социальное значение.

Ключевые слова: грамматический род, итальянский язык, морфосинтаксис, род и язык, инклюзивный язык, Академия делла Круска

KIRISH

Grammatik jins kategoriyasi roman tillarining ajralmas qismi hisoblanadi. Italyan tilida ushbu kategoriya otlarning morfologik shaklida, shuningdek artikl, sifat va olmoshlar bilan sintaktik moslashuvda namoyon bo'ladi. Zamonaviy tilshunoslikda grammatik jins faqat grammatik hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy va madaniy jarayonlar bilan uzviy bog'liq fenomen sifatida ham o'rganilmoqda. Italyan tili grammatikasi tarixida "Regole grammaticali della volgar lingua" asari alohida o'rin tutadi. Ushbu asar Giovanni Francesco Fortunio tomonidan 1516-yilda yozilgan bo'lib,

italyan tilining birinchi ilmiy grammatikasi hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda aynan ushbu asarda berilgan rod (genere) kategoriyasining talqini ko'rib chiqiladi. Ushbu maqolaning maqsadi italyan tilidagi grammatik jins kategoriyasini tarixiy, tizimli va zamonaviy nuqtai nazardan tahlil qilishdir. Asosiy qism

Grammatik jins kategoriyasining tarixiy shakllanishi

Italyan tili lotin tilidan kelib chiqqan bo'lib, klassik lotin tilida uch grammatik jins mavjud edi: masculinum, femininum va neutrum. Til taraqqiyoti jarayonida, ayniqsa xalq lotini (volgar lotin) davrida neutrum jins asta-sekin yo'qolib, uning shakllari erkak va ayol jinsiga singib ketgan.

Natijada, italyan tilida ikki jinsli tizim shakllandi:

maschile (erkak jinsi)

femminile (ayol jinsi)

XVI asrda Giovanni Francesco Fortunio tomonidan yaratilgan Regole grammaticali della volgar lingua asari grammatik jins kategoriyasini ilk bor ilmiy asosda bayon etdi. Ushbu asarda jins:

morfologik belgilar

semantik omillar

sintaktik moslashuv

asosida tushuntirilgan. Francesco Fortunio rodni o'ning muhim grammatik belgilaridan biri sifatida belgilaydi. U italyan tilida ikki rod mavjudligini ko'rsatadi:

maschile (erkak rod)

femminile (ayol rod)

Muallif lotin tilidagi uchinchi rod — neutro alohida kategoriya sifatida mavjud emasligini ta'kidlaydi, ammo uning ayrim izlari saqlanib qolganini bilvosita ko'rsatadi.

2. Morfologik mezonlar

Fortunio rodni aniqlashda asosiy e'tiborni so'zning morfologik shakliga, xususan oxirgi qo'shimchasiga qaratadi:

-o bilan tugagan otlar → maschile (libro, uomo)

-a bilan tugagan otlar → femminile (casa, donna)

Bu qoida umumiy va normativ xarakterga ega bo'lib, til tizimini tartibga solishga xizmat qiladi.

3. Istisnolar va til amaliyoti

Fortunio qoidalar mutlaq emasligini alohida ta'kidlaydi. Ba'zi so'zlar formal belgilariga zid ravishda boshqa rodga mansub bo'ladi:

mano → femminile

poeta → maschile

Bu holat muallif tomonidan til amaliyoti (uso) bilan izohlanadi. Shu orqali u grammatikani faqat qat'iy qoidalarga emas, balki real nutqqa bog'laydi.

4. Semantik yondashuv

Rodni aniqlashda ma'no ham muhim rol o'ynaydi:

erkak jinsni bildiruvchi otlar → maschile

ayol jinsni bildiruvchi otlar → femminile

Masalan:

padre — maschile

madre — femminile

Biroq bu mezon universal emasligi qayd etiladi.

5. Sintaktik moslashuv (accordo)

Fortunio rodni boshqa soʻzlar bilan moslashuv orqali ham koʻrsatadi. Xususan:

sifatlar

artikllar

otning rodi bilan moslashadi:

buono uomo

buona donna

Bu holat rodning sintaktik kategoriya sifatida ham muhimligini koʻrsatadi.

6. Rod va son kategoriyasining bogʻliqligi

Rod koʻplik shakllari bilan chambarchas bogʻliq:

maschile: -o → -i (libro → libri)

femmine: -a → -e (casa → case)

Bu esa rodning morfologik tizimdagi oʻrnini yanada mustahkamlaydi.

Giovanni Francesco Fortunio oʻzining “Regole grammaticali della volgar lingua” asarida italyan tilidagi rod kategoriyasini ilk bor ilmiy asosda izohlab beradi. U rodni aniqlashda morfologik, semantik va sintaktik mezonlarni uygʻunlashtiradi hamda istisnolarni til amaliyoti bilan tushuntiradi. Mazkur yondashuv keyingi italyan grammatikasi rivojiga mustahkam poydevor boʻlib xizmat qilgan.

III. Zamonaviy italyan tilida grammatik jins

Hozirgi italyan tilida jins kategoriyasi murakkab va koʻp qatlamli tizimga ega. Zamonaviy italyan tilida grammatik jins (genere grammaticale) til tizimining muhim morfosintaktik kategoriyalaridan biri boʻlib, u otlarning shakli, ularning gapdagi vazifasi va boshqa soʻzlar bilan moslashuvini belgilaydi

1. Morfosintaktik xususiyatlar

Jins quyidagi birliklar bilan moslashadi:

artikllar (il, la)

sifatlar (buono, buona)

olmoshlar

Bu italyan tilining flektiv tabiatini koʻrsatadi.

2. “Umumlashtiruvchi erkak jinsi”

Italyan tilida erkak jinsi koʻpincha umumiy yoki neytral maʼnoda qoʻllanadi:

i ragazzi (aralash guruh uchun)

Bu hodisa ilmiy adabiyotlarda maschile sovraesteso deb ataladi.

3. Sotsiolingvistik oʻzgarishlar

Zamonaviy jamiyatda jins kategoriyasi gender tengligi bilan bogʻliq holda qayta koʻrib chiqilmoqda. Masalan:

ministro → ministra

professore → professoressa

Accademia della Crusca ushbu masalada tilning grammatik imkoniyatlaridan foydalanib, ayol shakllarini qoʻllashni mantiqan asosli va lingvistik jihatdan toʻgʻri deb hisoblaydi. Shu bilan birga, til rivojida ijtimoiy ehtiyoj va anʼanaviy meʼyorlar oʻrtasida muvozanat saqlash zarurligi taʼkidlanadi.

Shuningdek, tilshunos Alma Sabatini oʻzining “Il sessismo nella lingua italiana” asarida ushbu hodisani tanqid qilib, erkak jinsining ustunligi ayollarning tilda koʻrinmas boʻlib qolishiga olib

kelishini ta'kidlaydi. Bu masala hozirgi kunda ham ilmiy va ijtimoiy bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda.

Zamonaviy sotsiolingvistik munozaralar va kasb nomlari

So'nggi yillarda italyan tilida kasb va lavozim nomlarini ayol jinsida qo'llash masalasi dolzarb bo'lmoqda:

il ministro → la ministra

il professore → la professoressa

Xulosa

Italyan tilidagi grammatik jins kategoriyasi tarixan lotin tilidan kelib chiqib, rivojlanish jarayonida soddalashgan va mukammal tizimga aylangan. Giovanni Francesco Fortunio tomonidan boshlangan ilmiy yondashuv keyinchalik yanada rivojlanib, zamonaviy lingvistik va ijtimoiy tadqiqotlar bilan boyitildi.

Bugungi kunda grammatik jins nafaqat til tizimining muhim qismi, balki jamiyatdagi gender va kommunikativ jarayonlar bilan bog'liq dolzarb masala sifatida qaralmoqda.

Shaxsiy fikrimcha, italyan tilidagi rodlar tarixiy jarayonni yoritish orqali tilning nafaqat grammatik, balki madaniy meros ekanligini ham ko'rsatadi. Neytral rodning yo'qolishi va zamonaviy italyan tilida ikki rod tizimining shakllanishi — bu tilning soddalashuvi bilan birga, kommunikatsiya uchun qulay va tizimli shaklga kelishini bildiradi.

Bundan tashqari, rodlar sistemasi nafaqat otlarni, balki sifat, olmosh va hatto artikllarni ham bir-biri bilan bog'lashda muhim rol o'ynaydi. Shaxsiy tajribam va kuzatishlarim shuni ko'rsatadiki, italyan tilida rodlarni to'g'ri qo'llash qiyin bo'lishiga qaramay, ularning tarixiy ildizlarini bilish tilni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu, ayniqsa, italyan tilini o'rganayotganlar uchun qadimiy va zamonaviy grammatika o'rtasidagi bog'lanishni sezishga imkon yaratadi.

Shu bois, menimcha, rodlar faqat grammatik kategoriya emas, balki italyan tilining madaniy va tarixiy identifikatori sifatida ham o'rganilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Regole grammaticali della volgar lingua – G. F. Fortunio
2. Alma Sabatini (1987). Il sessismo nella lingua italiana
3. Accademia della Crusca (2024)
4. Luca Serianni – Grammatica italiana
5. Pietro Trifone – Storia della lingua italiana